

Muzeydagi dars

O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi Mirzo Ulug'bek tumani boshqaruv apparati boshlig'i Ochilova Dilorom G'aniyevna, Qurolli Kuchlar faxriylari zaxiradagi polkovniklar Nuriddinov Musalim Sultanovich, Zufarov Xusan Adilovich, Dexkanbayev Abubakir Dexkanbayevich harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmasi professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar muzeyida Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmasida harbiy tayyorgarlik bo'yicha tahsil olayotgan talabalar hamda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti qoshidagi "INTERNATIONAL HOUSE - TASHKENT" akademik litsey o'quvchilari bilan «**Mardlik va jasorat**» darsini o'tkazdilar.

Dars davomida tadbir ishtirokchilariga Vatan himoyasi uchun o'z jonini fido qilgan yurtdoshlarimizning ko'rsatgan jasoratlari, ularning Vatanimiz mustaqilligi, kelajak avlodning tinch-totuv yashashlari uchun o'zlarini qurbon qilganliklari xotirlandi. Shuningdek, Qurolli Kuchlar faxriylari tomonidan yoshlarga butun harbiylik hayoti davomida bosib o'tilgan jangovar yo'lning mashaqqatlari va ushbu mashaqqatlarni mardlarcha yengib o'tish uchun zaruriy hisoblangan sifatlarni shakllantirish ustida to'xtalib o'tdilar.

Bundan tashqari, tadbir ishtirokchilari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar muzeyida tashkil qilingan, jahon sivilizatsiyasining dastlabki davridan to hozirgi kungacha bo'lgan barcha tarixiy voqelikni o'z ichiga olgan qurol-yarog'lar, harbiy anjomlar, jangovar texnikalar, vertolyotlar va samolyotlar hamda buyuk sarkardalarimizning jangovar faoliyatlari, jang tashkil etish strategiyasi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lishdi.



Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti harbiy kafedrasi boshlig'i podpolkovnik R. Minlishev axboroti

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov